<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmadagi talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	



Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoza Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	
Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik qarashlar	1041
Xamidov Amin Abdulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish	1044
Abduvahob Eshmurodov	
Talabalarda tibbiy bilimlarini rivojlantirishda "Svetofo" metodining ahamiyati va xususiyatlari	1047
Akbarova Dono Rahmatdjonovna	
Yosh davrlariga qarab harakat koordinatsiyasining rivojlanish bosqichlari va badiiy gimnastikada ritmning ahamiyati.....	1051
Beknazarova Lobar Shokir qizi	
Mashq va topshiriqlar tizimi orqali talabalarining komparativ-kreativ fikrlashini shakllantirish.....	1055
Mohinbonu Usmonova	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosidagi kompetensiya metodlarini takomillashtirish	1058
Hamdamova Manzura Zuvaydillayevna	
Akademik ko'nikma va uning tipologik tasnifi	1062
N. J. Isakulova	
Формирование коммуникативной компетентности детей старшего дошкольного возраста в процессе взаимодействия со сверстниками.....	1068
Намазбаева Лола Закировна, Умерова Зарема Ремзиевна	
Formativ baholashning nazariy asoslari va fizika fanida qo'llash imkoniyatlari	1073
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish	1078
Ibragimov Shuhratbek	
Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish yo'llari.....	1082
Mutallibjonov Ma'rufjon	
O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan kognitiv metaforalar.....	1088
Maxammatova Feruza Olimovna	
Tarbiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish	1092
Qurbaniyozova Mardona Fayzulla qizi	

INTERAKTIV TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILARNING KASBIY-MA'NAVIY TASAVVURLARINI BOYITISH YO'LLARI

Mutallibjonov Ma'rufjon

Andijon shahridagi Prezident maktabi tarbiya fani o'qituvchisi,
tayanch doktranti

Annotatsiya: Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish masalalari tahlil qilinadi. Interaktiv metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda kasbiy qadriyatlar, mas'uliyat, halollik va mehnatsevarlik kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Interaktiv yondashuvning ta'lim jarayonida o'quvchi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashni rivojlantirishi hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari interaktiv ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy qarashlarini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: interaktiv ta'lim, kasbiy-ma'naviy tarbiya, kasbiy qadriyatlar, pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim jarayoni, o'quvchi faolligi, innovatsion metodlar.

Abstract: Ways of enriching students' professional and moral perceptions in an interactive learning environment are analyzed. The pedagogical potential of interactive methods and modern educational technologies in developing such qualities as responsibility, honesty, and diligence is highlighted. The importance of interactive approaches in increasing student activity, fostering independent thinking, and improving the effectiveness of the educational process is substantiated. The results indicate that the effective use of interactive educational technologies significantly contributes to the development of students' professional and moral values.

Key words: interactive learning, professional and moral education, professional values, pedagogical technologies, information and communication technologies, educational process, student activity, innovative methods.

Аннотация: Рассматриваются пути обогащения профессионально-нравственных представлений учащихся в интерактивной образовательной среде. Раскрываются педагогические возможности интерактивных методов и современных педагогических технологий в формировании таких качеств, как ответственность, честность и трудолюбие. Обосновывается значение интерактивного подхода в повышении активности учащихся, развитии самостоятельного мышления и повышении эффективности образовательного процесса. Результаты исследования подтверждают, что использование интерактивных образовательных технологий способствует развитию профессионально-нравственных ценностей учащихся.

Ключевые слова: интерактивное обучение, профессионально-нравственное воспитание, профессиональные ценности, педагогические технологии, информационно-коммуникационные технологии, образовательный процесс, активность учащихся, инновационные методы.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli va kasbiy jihatdan tayyor shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy rivojlanish hamda ijtimoiy barqarorlik ko'p jihatdan yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi va kasbiy-ma'naviy fazilatlari bog'liq. Shu sababli ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilim berish, balki o'quvchilarda kasbiy-ma'naviyatga oid tasavvurlarni shakllantirish va ularni boyitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kasbiy ma'naviyat – bu shaxsning tanlagan kasbiga hurmat bilan yondashishi, o'z kasbiga mas'uliyat bilan qarashi, halollik, vijdonlilik, mehnatsevarlik va jamiyat oldidagi burchini chuqur anglash kabi fazilatlarni o'zida mujassam etgan muhim ijtimoiy-axloqiy tushunchadir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlash, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga sharoit yaratish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yosh avlodni har tomonlama yetuk, vatanparvar va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, umumta'lim



maktablarida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy qarashlarini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash hamda bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradigan interaktiv ta'lim muhitini yaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, fikr almashadi, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi va mustaqil xulosalar chiqaradi. Bunday muhit o'quvchilarning nafaqat bilimlarini mustahkamlashga, balki ularning ma'naviy-axloqiy qarashlari, kasbga oid tushunchalari hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Interaktiv metodlar, jumladan, muammoli ta'lim, bahs-munozara, loyiha asosida o'qitish, rolli o'yinlar, guruhli ishlash, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Snowball", muammoli vaziyat, rolli o'yin, "Juftini top", "Rasmlil vaziyat", "Rasmlil rebus", "Matn tuz", "Men kimman?" metodi, "To'g'ri-noto'g'ri" va "Sayohat" metodi kabi usullar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, nutqi, ijodiy qobiliyati va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shu metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish bilan birga, ularning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, raqamli platformalar va interaktiv dasturlardan (Jeopardy, Blooket, Wordwall, Baamboozle, Wheelofnames, Kahoot, Quizizz) foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda kasbga qiziqish uyg'otish hamda ularning ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatni shakllantirish jarayoni tizimli, maqsadli va metodik jihatdan asoslangan bo'lishi zarur. Bunda o'qituvchi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarni faol fikrlashga undovchi interaktiv metodlardan foydalanishi, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda singdirishi muhim hisoblanadi. Interaktiv ta'lim muhitida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning kasbga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish hamda kelajakda jamiyatga foydali, mas'uliyatli mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Shu bois mazkur maqolada interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitishning pedagogik imkoniyatlari, samarali usullari hamda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqola natijalari ta'lim jarayonida interaktiv yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy qarashlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish masalasi zamonaviy pedagogika, tarbiya nazariyasi va ta'lim texnologiyalari sohasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu masala ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy ishlari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ma'naviy tarbiyasi hamda kasbiy yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish masalalarini yoritishga qaratilgan.

Avvalo, shaxsning ma'naviy kamoloti va tarbiyasi masalasi Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida muhim o'rin egallaydi. Xususan, Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, komil insonni shakllantirish jarayonida ta'lim va tarbiya uyg'un holda olib borilishi zarur. Abu Rayhon Beruniy ham yoshlarni ilmga, kasb-hunarga va halol mehnatga yo'naltirish jamiyat rivojining muhim omillaridan biri ekanligini qayd etgan. Alisher Navoiy esa o'z asarlarida inson kamolotida mehnatsevarlik, halollik va kasbga hurmat kabi fazilatlarining muhimligini ta'kidlab o'tadi. Ushbu mutafakkirlarning qarashlari bugungi kunda ham o'quvchilarning kasbiy ma'naviyatini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston pedagogika fanida ham o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va kasbiy yo'naltirilgan ta'lim masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda axloqiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek pedagogika olimlari tomonidan ham o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, kasbiy yo'naltirish va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Xorijiy pedagogika va psixologiya ilmda ham shaxs rivoji, kasbiy tarbiya va interaktiv ta'lim muhitining ahamiyati keng o'rganilgan. Masalan, amerikalik pedagog olim J. Dewey ta'lim jarayoni o'quvchilarning faol ishtiroki asosida tashkil etilgandagina samarali bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'quvchilar amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi va hayotiy tajriba orttiradi. Shuningdek, L. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida ta'lim jarayoni o'quvchilarning faol muloqoti va hamkorligi orqali tashkil etilishi zarurligi asoslab berilgan. Ushbu nazariya interaktiv ta'lim metodlarining pedagogik asoslarini tushuntirishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.



So'nggi yillarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari ham ilmiy maqolalarning muhim yo'nalishiga aylangan. Interaktiv ta'lim metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), muammoli ta'lim, rolli o'yinlar va guruhli ishlash metodlari o'quvchilarning kasbiy tasavvurlarini boyitishda samarali vosita sifatida qaraladi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli tashkil etish imkonini yaratadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda interaktiv ta'lim metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ta'lim jarayonida interaktiv muhitni yaratish va o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etish ularning kasbiy-ma'naviy qarashlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogika, tarbiya nazariyasi hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarining ilmiy yondashuvlari metodologik asos sifatida xizmat qildi. Maqola metodologiyasi o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy qarashlarini shakllantirish jarayonini tizimli, kompleks va ilmiy asoslangan holda tahlil qilishga qaratilgan.

Maqolada pedagogika fanining umumiy metodlari bilan bir qatorda maxsus ilmiy tadqiqot usullaridan ham foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, pedagogik manbalar, metodik qo'llanmalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy ishlanmalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida interaktiv ta'lim metodlarining o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlariga ta'siri pedagogik kuzatuv, suhbat va test topshiriqlari orqali tahlil qilindi. Tajriba mashg'ulotlarida 5–6-sinf o'quvchilari bilan interaktiv metodlar asosida darslar tashkil etildi. Mashg'ulotlarda "Aqliy hujum", "Rolli o'yin", "Klaster", "Debat" hamda guruhli muhokama metodlari qo'llanildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning faolligi va mavzuga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Kuzatuvlar davomida o'quvchilarning aksariyati kasbiy ma'naviyat, mas'uliyat, halollik va mehnatsevarlik kabi tushunchalarni to'g'ri anglay boshlagani aniqlandi. Guruhli faoliyat jarayonida o'quvchilar kasbga oid vaziyatlarni tahlil qilib, o'z fikrlarini asoslab bera oldilar.

1-jadval: O'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitishning pedagogik modeli

Model tarkibiy qismi	Mazmuni	Amalga oshirish vositalari	Natija
Maqsadli komponent	O'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni shakllantirish va boyitish	Tarbiya darslari, interaktiv mashg'ulotlar	Kasbga hurmat va ijobiy munosabat shakllanadi
Mazmuniy komponent	Kasbiy qadriyatlar, halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik	O'quv materiallari, tarbiyaviy suhbatlar, hayotiy misollar	O'quvchilarning kasbiy dunyoqarashi kengayadi
Jarayon komponenti	Interaktiv ta'lim jarayonini tashkil etish	"Aqliy hujum", debat, rolli o'yin, loyiha ishlari	Faol fikrlash va muloqot ko'nikmalari rivojlanadi
Texnologik komponent	Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar	Kahoot, Wordwall, Quizizz, taqdimotlar	Dars samaradorligi va qiziqish ortadi
Natijaviy komponent	Kasbiy-ma'naviy tasavvurlari shakllangan shaxs	Diagnostic testlar, kuzatuv, tahlil	Ma'naviy va kasbiy qarashlari rivojlangan o'quvchi

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan interaktiv metodlarning umumiy maqsadi o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini rivojlantirish, ularni faol fikrlashga undash hamda o'quv jarayonida mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar dars jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bu esa ularning mavzuni chuqurroq anglashiga va o'z fikrini erkin ifoda etishiga yordam beradi.

Mazkur metodlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tahlil qilish, taqqoslash va umumlash-tirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, interaktiv mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar turli muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularga yechim topish hamda jamoada ishlash tajribasini egallaydi.



Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirib, ularni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

JUFTINI TOP METODI

O'quvchilarning kasbiy ma'naviy tasavvurlarini boyitish

- Shartni tushuntirish**

Juftini top shart-qoidalarini tushuntirish, kasb va xususiyatlarini borasida ma'lumot berish.

A ustun:

 1. O'qituvchi
 2. Shifokor
 3. Kasb
 4. Mehnat

B ustun:

 - a) Davolaydi
 - b) Alo
 - c) O'qitadi
 - d) O'qitadi
- Juflarni toping**

Kasbiy va xususiyatlarini to'g'ri bog'lab chizish.

A ustun:

 1. Shifokor
 2. Politsiyachi
 3. Muallim
 4. Injener

B ustun:

 - a) Davolaydi
 - b) O'qitadi
 - c) Tarbiy saqlaydi
 - d) Davolaydi
- Juflarni tekshirish**

Topilgan juflarni tekshirish va to'g'ri javoblarni muhokama qiling.

A ustun:

 1. Shifokor → d
 2. Politsiyachi → c
 3. Muallim → b
 4. Injener → a

B ustun:

 1. Davolaydi
 2. O'qitadi
 3. O'qitadi
 4. Davolaydi
- Natijani umumlashtirish**

Topilgan javoblarni muhokama qilib, kasbiy va ularning xususiyatlarini borasidagi asosiy xususiyatlarini birlashtirish.

LOYIHA ASOSIDA O'QITISH

PROJECT BASED LEARNING

- Muammoni aniqlash**

Qanday muammoni o'rganamiz? Loyihaning maqsadi nima?
- Rejalashtirish**

Vazifalarni qanday taqsimlaymiz? Ma'lumotni qanday yig'amiz?
- Natijani yaratish**

Topilgan ma'lumotlar asosida loyiha mahsulotini tayyorlaymiz (taqdimot, plakot, maket va boshqalar).
- Taqdimot va baholash**

Nimolarga erishdik? Nimalarni yaxshilash kerak?

"RASMLI VAZIYAT" METODI

Rasmiy kuzatib savollarga javob berish

- Qanday hamkorlik qilinyotganini ko'ryapsiz?**

Jamoa ishlash nima uchun muhim?

Qanday hamkorlik qilinyotganini ko'ryapsiz? Jamoa ishlash nima uchun muhim?
- Yigit o'z ish vazifasini qanday bajarayotir?**

Siz mas'uliyatli odamni qanday ta'sirga qilasiz?

Yigit o'z ish vazifasini qanday bajarayotir? Siz mas'uliyatli odamni qanday ta'sirga qilasiz?
- O'quvchilar nima uchun yordamlashish muhim?**

Arimagan narsalarni gap-gest qilish.

Bolakoyni katti-harakati to'g'rimi? Halol bo'lish nima uchun muhim?
- Nega bola kampingga yordam berayotir?**

Boshqalarga yordam berish nima uchun?

Farzandlarga toza solashmoq?

KEYS STUDY

INTERFAOL METODI

- Keys vaziyati:** Do'stoning elektron galam minqillab buzildi.

Keys vaziyati:

 - Qanday muammo yuzaga keldi?
 - Kayni do'stoning xatti-harakati to'g'ri deb o'ylaydiz?
 - Sabrl bo'lish
 - Halollikni tanqatlamaslik
- Keys vaziyati:** Maktab oshonasida besh so'm chiqdi.

Keys vaziyati:

 - Bu vaziyatda kim qanday noto'g'ri ish qildi?
 - O'g'ibola bu vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak edi?
- Keys vaziyati:** Ish joyida yosh yigitda baxtsiz hodisa yuz berdi.

Keys vaziyati:

 - Bu vaziyatda yigitlarga nima qilish kerak?
 - Bunday vaziyatni oldini olish uchun nima qilish zarur?
 - Tez yordam chaqirish
 - Texnika xavfsizligiga rioya qilish
- Keys vaziyati:** Bir dast barcha ishdan davom kashib qoldi, boshqa dast shunday dedi: "Bo'l, bekorga kdp mehnat qilavermas!"

Keys vaziyati:

 - Mehnatsevarlik
 - Foydali
 - Intizom zarur
 - Tez yordam chaqirish
 - Intizom zarur

SAYOHAT METODI

Har bir bекatda topshiriqlarni bajarish!

- 1-бекat: Kasbiy shahri**

Turli kasblarni oytib va ularning vazifasini tushuntirish
- 2-бекat: Halollik manzili**

Halollik nima? Misollar keltirish
- 3-бекat: Mas'uliyat ko'pgisi**

Mas'uliyatli inson qanday bo'ladi?
- 4-бекat: Kelajak kasbi**

O'zingiz tanlamaguchi bolgan kasbi haqida gapirib berish
- 5-бекat: Sayohat terminali**

O'g'irlarimizdan qanday saboq oldik? Nimalarni o'rgandik?

RASMLI REBUS

Rasm va belgilar orqali so'zni toping!

- Shifokor**
- O'qituvchi**
- Politsiyachi**
- Dasturchi**
- Planeta**
- Usta**

ROLLI O'YIN METODI

O'quvchilar rollarga kirib topshiriqlarni bajarishlari

- 1. Rollarni tanlang**

O'quvchilarga ro'yxatdan birini tanang, har kim o'z rolini oling
- 2. Mavzuni muhokama qiling**

Mavzu bo'yicha savol yoki muammoli vaziyatni muhokama qiling
- 3. Rollarni ijro eting**

O'quvchilar rollarga kirib, mavzuga oid vaziyatni ijro etsin
- 4. Xulosa chiqaring**

Rol o'ynashdan qanday xulosa chiqarish mumkinligini muhokama qiling

MEN KIMMAN?

O'quvchilarning kasbiy ma'naviy tasavvurlarini boyitish

- 1. Kimman?**

1. O'quvchilarga bilim beraman.
2. Dars o'taman.
3. Kitoblarim ko'p.

Men kimman?
- 2. Kimman?**

1. Bemorlarni davolayman.
2. Haddi beraman.
3. Stetoskopim bor.

Men kimman?
- 3. Kimman?**

1. Qoidalar asosida ishlayman.
2. Huquq tarbiy saqlayman.
3. Xavfsizlikni ta'minlayman.

Men kimman?
- 4. Kimman?**

1. Loyihalar tuzaman va qiram.
2. G'ohlar, bolalar ishlataman.
3. Kaska kiyib yuraman.

Men kimman?
- 5. Kimman?**

1. Yeguliklarni pishiraman.
2. Oshonasida ishlayman.
3. Qoppi kiyaman.

Men kimman?
- 6. Kimman?**

1. Olov oldini olishda ishlayman.
2. Yong'in o'chiraman.
3. Yong'inchilar kiyimini kiyaman.

Men kimman?
- 7. Kimman?**

1. Mashinalarni ta'mirlayman.
2. Mexanik asboblarni.
3. G'ildiraklarni kiyimini kiyaman.

Men kimman?
- 8. Kimman?**

1. Hayvonlarga qarayman.
2. Sabzavotlar yetishtiraman.
3. Yonda traktorim bor.

Men kimman?

1-rasm: Interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash



Interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid muhim fazilatlar – halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, adolat va hamkorlik kabi qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday metodlar dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qilib, o'quvchilarning bilimiga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning kasbiy va ma'naviy dunyoqarashini boyitadi.

2-jadval: O'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish bosqichlari

Bosqich	Mazmuni	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Natija
1-bosqich (motivatsion)	O'quvchilarda kasb va ma'naviyat haqida qiziqish uyg'otish	Motivatsion savollar, videolar, suhbat	Fikr bildiradi, savollarga javob beradi	Kasbiy qiziqish paydo bo'ladi
2-bosqich (tushunish)	Kasbiy ma'naviyat tushunchalarini tushuntirish	Interaktiv metodlar orqali tushuntiradi	Muhokama qiladi, misollar keltiradi	Asosiy tushunchalar shakllanadi
3-bosqich (amaliy faoliyat)	Kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish	Rolli o'yinlar, guruhli topshiriqlar	Vaziyatlarni tahlil qiladi	Kasbiy fikrlash rivojlanadi
4-bosqich (mustahkamlash)	Olingan bilimlarni mustahkamlash	Testlar, interaktiv o'yinlar	Topshiriqlarni bajaradi	Bilim va tasavvurlar mustahkamlanadi
5-bosqich (refleksiya va baholash)	Natijalarni tahlil qilish	Savol-javob, diagnostika	O'z fikrini bildiradi	Kasbiy-ma'naviy qarashlar shakllanadi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv ta'lim muhitini tashkil etish o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini shakllantirish va boyitishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi hamda kasbga oid tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan "Aqliy hujum", "Debat", "Klaster", "Rolli o'yin" kabi metodlar o'quvchilarning kasbiy faoliyatga nisbatan qiziqishini oshirdi va ularning halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik kabi ma'naviy fazilatlar haqidagi tasavvurlarini boyitdi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga hamda o'quvchilarning kasbga oid bilimlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Natijada interaktiv ta'lim muhitida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy qarashlarini rivojlantirish, ularni kelajak kasbga ongli ravishda tayyorlash hamda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

Takliflar:

- Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini rivojlantirish maqsadida interaktiv ta'lim metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.
- Tarbiya va boshqa fan darslarida kasbga oid muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar va guruhli muhokamalardan foydalanish samarali hisoblanadi.
- Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv platformalarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.
- O'quvchilarda kasbiy ma'naviyatni shakllantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.
- O'qituvchilar uchun interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Mazkur takliflarni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini rivojlantirishga hamda ularni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
- Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.



4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.
6. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
7. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
8. Benjamin Bloom. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longman, 1956.
9. Pedagogika: oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashri, 2019.
10. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
11. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
12. Interaktiv ta'lim metodlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
13. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti – <https://www.uzedu.uz>
14. Ziyonet ta'lim portali – <https://www.ziyonet.uz>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.